



(dastlabki ma'lumotlar)

Toshkent shahar

kichik tadbirkorlik

2020 – yil yanvar – iyun





2020–yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagি ulushi **48,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **30,1** birlikni tashkil qildi.

2020–yilning yanvar – iyunida **7008** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **65,1** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 24 540 ta, sanoatda 15 502 ta, qurilishda 7 408 ta, yashash va ovqatlanishda 6 576 ta, tashish va saqlashda 3 627 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 873 tashkil etilgan.

2020 – yil yanvar – iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Yanvar – iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	68789	78943	10154
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	10763	7008	-3755
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	49,2	48,4	-0,8
Sanoat	%	38,5	38,8	0,3
Investitsiya	%	44,7	57,2	12,5
Qurilish	%	77,2	74,2	-3,0
Savdo	%	73,9	67,5	-6,4
Xizmatlar	%	52,4	46,3	-6,1
Yuk tashish	%	67,8	69,4	1,6
Yuk aylanmasi	%	62,0	66,0	4,0
Yo'lovchi tashish	%	78,1	84,0	5,9
Yo'lovchi aylanmasi	%	83,9	87,5	3,6
Eksport	%	20,1	17,7	-2,4
Import	%	61,7	50,1	-11,6



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Chilonzor tumanida – 905 ta, Yunusobod tumanida – 810 ta, Uchtepa tumanida – 810 ta, Mirzo Ulug'bek tumanida – 756 ta, Shayxontohur tumanida – 697 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida – 199 tani tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 – yil yanvar – iyun	2020 – yil yanvar – iyun	(+;-)
Toshkent shahar	10763	7008	-3755
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	1577	810	-767
Bektemir	393	199	-194
Yunusobod	1232	810	-422
Mirzo Ulug'bek	1010	756	-254
Mirobod	788	529	-259
Shayxontohur	1003	697	-306
Olmazor	1330	697	-633
Sergeli	633	510	-123
Yakkasaroy	673	518	-155
Yashnobod	780	577	-203
Chilonzor	1344	905	-439



2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha ulushi, % da




2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Chilonzor tumani – 12,9 %, Yunusobod tumani – 11,6 %, Uchtepa tumani - 11,6 %, Mirzo Ulug`bek tumani - 10,8 %, Shayxontohur tumani – 9,9 %, Olmazor tumani – 9,9 %, Yashnobod tumani – 8,2 %, Mirobod tumani – 7,5 %, Yakkasaroy tumani – 7,4 %, Sergeli tumani – 7,3 %, Bektemir tumani – 2,8 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- iyun	2020 - yil yanvar- iyun	(+;-)
Jami	10763	7008	-3755
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	122	98	-24
Sanoat	1762	957	-805
Qurilish	951	679	-272
Savdo	4942	2989	-1953
Tashish va saqlash	345	248	-97
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	652	480	-172
Axborot va aloqa	350	325	-25
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	135	128	-7
Boshqa faoliyat turlari	1504	1104	-400

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda


	2019 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Chilonzor tumani	1344	905	-439
Yunusobod tumani	1232	810	-422
Uchtepa tumani	1577	810	-767
Mirzo Ulug`bek tumani	1010	756	-254
Shayxontohur tumani	1003	697	-306
Olmazor tumani	1330	697	-633
Yashnobod tumani	780	577	-203
Mirobod tumani	788	529	-259
Yakkasaroy tumani	673	518	-155

2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Chilonzor tumanida – 905 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda





Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra*




2020 – yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Shayxontohur tumanida 43,3 birlik, Olmazor tumanida 42,4 birlik, Sergeli tumanida 39,8 birlik, Yashnobod tumanida 39,3 birlik, Uchtepa tumanida 34,4 birlik, Yunusobod tumanida 32,0 birlik, Mirzo Ulug'bek tumanida 31,0 birlik, Chilonzor tumanida 23,9 birlik, Mirobod tumanida 20,5 birlik, Bektemir tumanlarida 17,1 birlikni tashkil etgan. Yakkasaroy tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 16,4 birlikni to'gri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tumanlar bo'yicha
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'satkich Shayxontohur tumanida 46,3 birlik, Olmazor tumanida 43,4 birlik, Yashnobod tumanida 42,6 birlik, Sergeli tumanida 41,4 birlik, Uchtepa tumanida 36,2 birlik, Yunusobod tumanida 34,4 birlik, Mirzo Ulug`bek tumanida esa 32,1 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



• Eng yuqori ko'rsatkich

Shayxontohur tumani - 46,3 birlik;

• O'rtacha ko'rsatkich

Yunusobod tumani - 34,4 birlik;

• Eng past ko'rsatkich


Yakkasaroy tumani - 16,9 birlik;

Bundan ko'riniб turibdiki, Shayxontohur tumanida tovar va xizmatlarga bo'lган talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Yakkasaroy tumanida tovar va xizmatlarga bo'lган talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra, % da

2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 48,4 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - iyunida 49,2 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikni tumanlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent shahar	38,8	74,2	46,3	57,2
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	57,7	90,3	77,9	63,3
Bektemir	34,8	84,2	89,6	76,5
Yunusobod	41,1	66,0	29,8	34,2
Mirzo Ulug`bek	33,1	67,0	56,4	69,2
Mirobod	19,2	56,8	30,4	43,7
Shayxontohur	31,6	66,5	55,6	57,0
Olmazor	79,2	63,1	64,3	57,2
Sergeli	71,1	92,3	64,1	71,7
Yakkasaroy	55,2	82,1	70,0	80,7
Yashnobod	17,0	88,0	29,5	79,4
Chilonzor	74,6	77,3	43,8	47,5

Tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-


Olmazor (79,2 %),
Chilanzor (74,6 %),
Sergeli (71,1 %),
Uchtepa (57,7 %),
Yakkasaroy (55,2 %) va
Yunusobod (41,1 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Sergeli (92,3 %),
Uchtepa (90,3 %),
Yashnobod (88,0 %),
Bektemir (84,2 %),
Yakkasaroy (82,1%) va
Chilanzor (77,3 %)
tumanlarida.


Xizmatlarda-

Bektemir (89,6 %),
Uchtepa (77,9 %),
Yakkasaroy (70,0 %),
Olmazor (64,3 %),
Sergeli (64,1 %) va
Mirzo Ulug`bek (56,4 %)
tumanlarida.






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagи ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Chilonzor tumanida – 88,1 %, Uchtepa tumanida – 58,2 %, Bektemir tumanida – 42,1 %, Yashnobod tumanida – 40,8 %, Yakkasaroy tumanida – 36,6 %, Olmazor tumanida – 36,3 %, Sergeli tumanida – 34,1 %, Shayxontohur tumanida – 27,9 %, Mirzo Ulug`bek tumanida – 22,8 %, Yunusobod tumanida – 6,6 % ni eng past ko'satkich Mirobod tumanida – 1,7 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa tumanida – 76,0 %, Sergeli tumanida – 68,9 %, Olmazor tumanida – 66,4 %, Yakkasaroy tumanida – 56,2 %, Mirzo Ulug`bek tumanida – 53,2 %, Chilonzor tumanida – 50,6 %, Yashnobod – 48,0 %. Eng past ko'rsatkich Yunusobod tumanida – 25,5 % ni tashkil etdi.



2020 – yilning yanvar – iyunida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tumanlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yashnobod shahri (8529,6 mlrd. so'm), Mirobod (3026,2 mlrd. so'm), Bektemir (2703,9 mlrd. so'm), Sergeli (2332,6 mlrd. so'm) va Mirzo Ulug'bek (2330,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yakkasaroy tumanida (1421,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.







2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar bo‘yicha ulushi, % da



Tumanlar tadbirkorliknining kesimida jami kichik sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (79,2 %), Chilonzor tumani (74,6 %), Sergeli tumani (71,1 %), Uchtepa tumani (57,7 %), Yakkasaroy tumani (55,2 %), Yunusobod tumani (41,1 %), Bektemir tumani (34,8 %), Mirzo Ulug`bek tumani (33,1 %), Shayxontohur tumani (31,6 %), va Mirobod (19,2 %), tumanlari tashkil etdi. Yashnobod tumanida (17,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – iyunida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tumanlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani – 2095,4 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 101,5%), Yunusobod tumani 1681,2 mlrd. so'm (92,0 %), Chilonzor tumani 1454,5 mlrd. so'm (97,3 %) va Bektemir tumani 1349,7 mlrd. so'm (99,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.



2020 – yilning yanvar – iyunida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Chilonzor tumani – 736,0 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 94,4 %), Yakkasaroy tumani 725,0 mlrd. so'm (85,0%), Sergeli tumani 669,4 mlrd. so'm (98,4%), Yashnobod tumani 642,5 mlrd. so'm (97,8%) hamda Yunusobod tumanida 640,7 mlrd. so'm (109,3%) qayd etildi.





2020 – yilning yanvar – iyunida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tumanlar bo`yicha eng ko’p xizmatlar hajmi Mirzo Ulug`bek tumani – 2122,1 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o’sish sur’ati 56,4 %), Shayxontohur tumani 2016,9 mlrd. so’m (55,6 %), Yunusobod tumani 1909,5 mlrd. so’m (29,8%), Mirobod tumani 1840,3 mlrd. so’m (30,4%) hissasiga to’g’ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **4143** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020 – yil II – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,2 % (7 ta.), sanoatda – 15,2 % (640 ta), qurilishda – 7,3 % (294 ta), savdoda – 34,3 % (1422 ta), xizmatlar sohasida – 43,0 % (1780 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020 – yil II chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil II chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat xizmatlar sohasida -1,0 punktga, savdoda -1,4 punktga, sanoat korxonalarida -0,1 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida -8,6 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasi 28,9 punktga, qurilish sohasida 21,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 14,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda , xizmatlar sohasi 0,8 punktga, sanoat korxonalari 8,6 punktga, qurilish korxonalari 5,7 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi ximatlar sohasida 13,4 punktga, sanoat sohasida 9,9 punktga, savdoda 6,8 punktga, qurilishda 9,2 punktga oshdi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdag'i iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020 – yilning II choragi yakunlariga ko'rta yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 427 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 54 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 12,6 % i), qurilish – 41 ta (9,7 % i), savdo – 181 ta (42,4 % i) va xizmatlar – 147 ta (34,4 %), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 4 ta (0,9 %).




2020 – yil II – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 8,7 punktga, sanoat sohasida 13,8 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 – yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 9,4 punktga, qurilishda 20,5 punktga, sanotda 8,0 punktga oshdi, savdo korxonalarida esa 0,8 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdoda 5,1 punktga, sanoat 4,0 punktga, qurilish 3,6 punktga oshdi, xizmat korxonalarida esa 2,7 punktga kamaydi.



2019 – 2020 – yil II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

